

**DUAL TA'LIM-MALAKALI KADR TAYYORLASHNING SAMARALI  
USULI!**

*Ismoilov Islomjon Ilhomjon o'g'li,*

*Namangan to'qimachilik sanoati instituti assistenti*

*Tel.:50 075 25 23,*

*E-mail:islomjonismoilov660@gmail.com,*

*Annotatsiya : Bu maqolada dual ta'lim tizimi mazmun mohiyati va uning afzalliklari hamda mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni. O'zbekistonda dual ta'lim tizimiga o'tish bosqichlari haqida.*

*Kalit so'zlar : Dual ta'limni mazmun mohiyati. O'zbekistonda dual ta'limga o'tish bosqichlari.*

**ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ -  
ПОДГОТОВКА КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ**

*Исмаилов Исламджон, сын Илхомджона,*

*ассистент Наманганского института текстильной*

*промышленности, Тел.: 50 075 25 23,*

*E-mail: [islomjonismoilov660@gmail.com](mailto:islomjonismoilov660@gmail.com)*

*Аннотация: В данной статье рассматривается дуальная система образования и ее преимущества, а также ее роль в подготовке специалистов. Об этапах перехода на дуальное обучение в Узбекистане.*

*Ключевые слова : Суть дуального образования. Этапы перехода к дуальному обучению в Узбекистане.*

**EFFECTIVE METHOD OF DUAL EDUCATION-QUALIFIED  
PERSONNEL TRAINING**

*Ismailov Islamjon, son of Ilhomjon,  
assistant of Namangan Institute of Textile Industry*

*Tel.: 50 075 25 23,*

*E-mail: [islomjonismoilov660@gmail.com](mailto:islomjonismoilov660@gmail.com)*

***Annotation :** This article discusses the dual education system and its advantages, as well as its role in training professionals. About the stages of transition to dual education in Uzbekistan.*

***Keywords :** The essence of dual education. Stages of transition to dual education in Uzbekistan.*

### **1. Dual ta'lim tizimi mazmun mohiyati.**

**Dual ta'lim tizimi** – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limning asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat. Oliy ta'lim institutlari yoki kasb- [hunar akademiyalarida](#) kompaniyalar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan dual ta'lim dasturlari dasturning alohida turi hisoblanadi. Xususan O'zbekistonda ham 2021-yil 19-yanvar kuni "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetida innovatsion ta'lim tizimi sifatida tan olingan dual ta'lim bilan yaqindan tanishish maqsadida universitet O'quv-ishlab chiqarish markazi (O'ICHM) direktori – Muxamednazarova I.V. tomonidan tashkil etilgan seminar-trening o'tkazildi. Mazkur seminar-treningda dual ta'lim kontseptsiya, talabalar va ish beruvchilar uchun uning afzalliklari haqida ham alohida gapirilib o'tildi. Kasbiy dual ta'limi tizimining kontseptsiyasi o'quv va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish orqali mutaxassislarni tayyorlashda amaliy yo'nalishni kuchaytirishga asoslanadi, bu esa o'quv muassasalari bitiruvchilarining kasbiy harakatchanligini sezilarli darajada oshiradi. Dual ta'lim tizimi samarali va

moslashuvchan mexanizm bo'lib, turli soha korxonalari tomonidan bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlarida talab yuqori bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Ushbu turdagi dastur an'anaviy oliy ta'limdan farq qiladi.

### **Dual ta'limning afzalligi**

Talaba boshidanoq kompaniyaning xodimi bo'lib, uning o'sib borayotgan qobiliyatiga mos vazifalarni oladi. Agar kompaniya talaba bilan uning ikki tomonlama o'qish vaqtidan keyin mehnat shartnomasini tuzmoqchi bo'lsa, kompaniya kompaniyaning ish jarayonini biladigan xodimni oladi. Bundan tashqari, talaba ko'proq tajribali hamkasblarning bilimlardan foydalanishi mumkin. Talaba haqiqiy sharoitda rivojlanadi. Shuning uchun, u bu ishni faqat imtihonlardan keyin emas, balki juda erta bajarishga qodir emasligini yoki xohlamasligini ko'rishi mumkin. Qolaversa, talaba boshidanoq pul ishlab topadi. Dual ta'lim tizimidagi talabalar yuqori sifatli kasb-hunar ta'limi va ta'lim olishlarini hisobga olsak, ular yoshligidanoq mehnat bozoriga kirishga tayyor va ularning o'qitilishida qatnashadigan firmalar ularni bitirgach, ishga qabul qilishga tayyor. Bundan tashqari, ushbu tizim firmalar xarajatlari bo'yicha katta tejamkorlikni ta'minlaydi, chunki ular talabalarni potentsialini ishga moslashuvchanligini hamda mahoratini bilishadi va ularga sarmoya kiritadilar. Shuningdek, bu Germaniyaning jahonga taniqli firmalarining iqtisodiy yutuqlariga hissa qo'shadigan omil sifatida qaraladi, chunki yuqori malakali ishchi kuchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yaxshilashga bevosita hissa qo'shishi mumkin. Natijada ishsizlik oldini olinadi va kadrlarni o'z kasbiga nisbatan mahorati ortadi.

### **Kadrlar tayyorlashda dual ta'lim o'rni.**

“Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi hukumat qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'lim tashkil etiladi. Dual ta'lim – bu ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib boruvchi tizimdir.

Dual ta'limni tashkil etish uchun hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va taklif tayyorlanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili 1-iyulgacha dual ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan ta'lim muassasalarini belgilaydi.

Tanlangan ta'lim muassasalari belgilangan kvotalar bo'yicha o'quvchilarni qabul qiladi. Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma tashkilot va o'quvchi o'rtasida ham tuziladi. Bunda o'quvchi uchun tashkilotda muayyan ish o'рни ajratiladi. O'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi qolgan kunlar ishlaydi. O'quvchiga ishlagan kunlari uchun haq to'lanadi.

### **O'zbekistonda dual ta'limga o'tish bosqichlari.**

O'zbekiston Respublikasi " Ta'lim to'g'risida"gi [Qonuniga](#) muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil maqsadida, 2021yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 163-sonli qaror qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekistonda professional ta'limda bosqichma bosqich dual ta'limni tashkil qilish rejasi ishlab chiqildi. **Qarorga ko'ra dual ta'limni amalga oshirish quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

Dual ta'lim tashkil etiladigan korxonalar (tashkilot)larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, vazirliklar va idoralar taklifi asosida aniqlash;

Korxonalar (tashkilot) va Ta'lim muassasasi hamda korxonalar (tashkilot) va o'quvchi o'rtasida shartnoma tuzish;

O'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

Ta'lim dasturlarni ishlab chiqish hamda yangilab borish;

Mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talab va takliflarni inobatga olgan holda Dual ta'lim jarayonini tashkil etish;

Dual ta'lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Yuqoridagi shartlar bosqichma-bosqich bajarilsa, O'zbekiston ta'lim tizimi ham kata yutuqlarga erishadi. Xususan, yuqori malakali, salohiyatli kadrlar yetishib chiqadi. Bu esa yurtimiz rivoji uchun kata hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Five Great German Short Stories: A Dual-Language Book. [Stanley Appelbaum](#) 1993 by Dover Publications
2. [Dual vocational education and training made visible](#)", Bonn 2017. p. 11-12.
3. Обучение в вечерней школе; Педагогика - Москва, 2010..